



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC

SOLUTIONS

SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

Anorboyeva Ruxsora Sayriddin qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti "Xalqaro huquq" I-kurs talabasi

Tel.: +998(94) 044-40-38

e-pochta: ruxsora_anorboyeva@icloud.com

Annotation: Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bugungi kunda butun dunyoda dolzarb masalaga aylangan. Raqamli texnologiyalar va internetning rivojlanishi tufayli ma'lumotlarning noqonuniy ishlatalish xavfi ortib bormoqda. Ushbu maqolada shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga doir huquqiy asoslar, xususan xalqaro huquqiy hujjatlar va milliy qonunchilik tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu huquqiy hujjatlarga rioya qilishning ahamiyati yoritiladi. Maqolada shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi, ularni himoya qilish usullari va shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash masalalari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: texnologiya, shaxsiy hayot daxlsizlik huquqi, deklaratsiya, konvensiya, inson huquqlari, konstitutsiya, ma'lumot.

Annotation: The protection of personal data has become a pressing issue all over the world today. Due to the development of digital technologies and the Internet, the risk of illegal use of data is increasing. This article analyzes the legal framework for the protection of personal data, in particular international legal instruments and national legislation. It also highlights the importance of compliance with these legal instruments. The article also considers the confidentiality of personal data, methods of their protection, and issues of ensuring privacy.

Keywords: technology, right to privacy, declaration, convention, human rights, constitution, information.

АННОТАЦИЯ: Защита персональных данных сегодня стала актуальной проблемой во всем мире. В связи с развитием цифровых технологий и Интернета возрастает риск незаконного использования информации. В данной статье анализируются правовые основы защиты персональных данных, в частности международно-правовые документы и национальное законодательство. В нем также подчеркивается важность соблюдения этих правовых документов. Также в статье рассматриваются вопросы конфиденциальности персональных данных, способы их защиты и обеспечения конфиденциальности.

Ключевые слова: технологии, право на неприкосновенность частной жизни, декларация, конвенция, права человека, конституция, информация.

Texnologiyaning rivojlanib borayotgani insonlar hayotini sezilarli darajada o'zgarishiga sabab bo'lib kelmoqda, lekin shu bilan birga, shaxsiy ma'lumotlarni



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

xavfsizligi bilan bog'liq muammolarni ham keltirib chiqaradi. Shaxsiy ma'lumotlar noto'g'ri qo'llanishi, uchinchi shaxslar tomonidan noqonuniy foydalanimilishi yoki tarqalib ketishi xavfi mavjud. Shu sababli, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalasi hozirda juda dolzarb hisoblanadi.

Shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy tarqatilishi va noto'g'ri ishlatalishi natijasida fuqarolar o'z shaxsiy hayotini himoya qilishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bu, ayniqsa, identifikasiya o'g'irlanishi, moliyaviy firibgarliklar va boshqa noxush holatlarning ortishiga olib keladi. Natijada, insonlarning o'zlariga oid ma'lumotlarga bo'lgan ishonchi pasayadi va bu jamoatchilikda xavotir tug'dirishni boshlaydi. Buning oqibatida, hatto, odamlar shaxsiy ma'lumotlarini internetda saqlashdan bosh tortishi yoki ularga ishonchksiz bo'lishi, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini to'xtatishi mumkin.

Ushbu masalani nafaqat huquqiy tartibga solish, balki axborot xavfsizligi nuqtai nazaridan o'rganish va tadqiq etish katta ahamiyatga ega. "Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish faqatgina fuqarolar huquqlarini himoya qilish bilan cheklanmay, balki davlatlar o'rtasida axborot xavfsizligi tizimlarini mustahkamlashga ham xizmat qiladi".¹ Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish nafaqat fuqarolar huquqlarini ta'minlash, balki davlatlar o'rtasida axborot xavfsizligi tizimlarini mustahkamlashga ham hissa qo'shadi. Shu sababli, ushbu sohada samarali huquqiy mexanizmlarni shakllantirish va xalqaro hamkorlikni rivojlanadirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumotlar xavfsizligi bo'yicha mutaxassis Solove D.J. ta'kidlaganidek, "Shaxsiy hayot buzilishi jamiyatga bevosita ta'sir qiluvchi omildir, chunki u insonning huquqlari va erkinliklariga tahdid soladi²". Mazkur sababga ko'ra, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish yuzasidan milliy va xalqaro huquqiy me'yorlarni shakllantirish va takomillashtirish zarur.

Shaxsga doir ma'lumotlarni saqlash, shaxsiy hayot daxlsizligini davlat tomonidan, qonunlar bilan ta'minlab berish bilan uzviy bog'liqidir. Shaxsiy hayot daxlsizligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida, "Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega. Har kim yozishmalar, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarları sir saqlanishi huquqiga ega. Ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi. Har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega³", deb belgilab qo'yilgan.

¹ Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar hukumatlari o'rtasida bitim. Xalqaro axborot xavfsizligini ta'minlash sohasida hamkorlik to'g'risida. 16.06.2009. <https://www.lex.uz/uz/docs/-2068476>

² Daniel J.Solove's book, The digital person: Technology and Privacy in the information age (2004). https://scholarship.law.gwu.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=2501&context=faculty_publications

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023.<https://lex.uz/docs/-6445145>

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Bundan ko‘rinib turibdiki, shaxsiy hayot daxlsizlik huquqi, O‘zbekistonning asosiy qonuni, Konstitutsiya bilan mustahkamlangan. Bundan tashqari, O‘zbekistonda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha 2019-yil 2-iyulda “Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-547-sonli Qonuni qabul qilingan. Ushbu qonunda shaxsga doir bo‘lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog‘ozda va boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborotlar shaxsga doir ma’lumotlar ekanligi ta’kidlangan.

Yuqorida keltirib o‘tilgan huquqiy hujjatlarda belgilangan shaxsiy daxlsizlikka oid huquqlar qo‘pol ravishda buzilgan taqdirda Jinoyat kodeksining 141(2) -moddasida nazarda tutilgan javobgarlik kelib chiqarishi mumkin. Jinoyat kodeksining ushbu moddasida, Agar shaxsga doir ma’lumotlarni qonunga zid ravishda yig‘ish, saqlash, o‘zgartirish, tarqatish yoki yo‘q qilish amalga oshirilsa yoki Internet orqali O‘zbekiston fuqarolarining shaxsiy ma’lumotlari belgilangan qoidalarga muvofiq saqlanmasa, bu qonunbuzarlik hisoblanadi. Agar bu harakatlar uchun avval ma’muriy jazo qo‘llanilgan bo‘lib, keyin qayta sodir etilsa, javobgarlik kuchayishi mumkin va jinoyat kodeksida qayd etilgan sanksiya bilan jazolanishi⁴ ta’kidlab o‘tilgan.

Shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish bu - shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi⁵. Texnologiyalar rivojlangan zamonda tobora shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish masalasi dolzarb bo‘lib bormoqda. Ayniqsa, fuqarolarga oid shaxsiy ma’lumotlar turli avtomatlashtirilgan axborot tizimlarida to‘planayotgani va axborot tarqatish vositalarining ko‘payishi bu jarayonga ta’sir qilmoqda. Natijada, shaxsiy ma’lumotlarning tarqalishi osonlashgan, bu esa ularni himoya qilish zaruratini yanada oshishiga asosiy sabab bo‘lmoqda. Shu sababli, bugungi raqamli muhitda shaxsiy ma’lumotlarni xavfsiz saqlash va ularning noto‘g‘ri ishlatalishining oldini olishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Shaxsiy ma’lumotlarni noqonuniy tarqalishini oldini olish va saqlash bo‘yicha sanksiyalarni kuchaytirish va avvalgi ma’muriy jazolarni jiddiylashtirish, shuningdek, jinoyat kodeksining 141(2)-moddasiga tayanib, yanada qat’iyroq javobgarlikni ta’minlash orqali shaxsiy ma’lumotlarni noqonuniy tarqalishini kamaytirish mumkin. Bundan tashqari, maktablarda, oliy o‘quv yurtlarida va boshqa ta’lim muassasalarida shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishga oid kurslar, treninglar va seminarlar o‘tkazish kerak. Bu fuqarolarni shaxsiy hayotini raqamli muhitdan himoya qilishga undaydi.

Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi xalqaro qonun hujjatlarida ham qayt etilgan. Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi “Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Konvensiyaning 8-moddasida “Shaxsiy hayotni hurmat qilish huquqi” asosida shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish kafolatlangan deya ta’kidlaydi, hamda sud shaxsni aniqlash uchun ma’lumotlarni to‘plash, saqlash va oshkor qilishni shaxsiy

⁴O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 22.09.1994. <https://lex.uz/docs/-111453?ONDATE=23.03.2023>

⁵O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.07.2019. yildagi O‘RQ-547-son.<https://lex.uz/docs/-4396419>

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

hayotni hurmat qilish huquqiga aralashish deb hisoblaydi. Bundan tashqari, yashash, erkinlik va shaxsiy hayot daxlsizlik huquqi BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrdan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 3-moddasi bilan kafolatlangan. Ushbu deklaratsiyaning 12-moddasida “Hech kim shaxsiy hayoti, oilasi, yashash joyi yoki yozishmalariga noqonuniy aralashish yoki sha’ni va qadr-qimmatiga tajovuz qilishga duchor etilmasligi kerak. Har kim bunday aralashuv va tajovuzlardan himoyalanish huquqiga ega⁶”, deb ta’kidlangan, ya’ni bu moddalarning asosiy tamoyillaridan biri shaxsiy daxlsizlik, shaxsiy va oilaviy sirlarga bo’lgan huquqni rivojlantirishning yangi bosqichini belgilab berdi. Hozirgi kunda shaxsiy daxlsizlik huquqi, telefon suhbatlarni sir tutilishi va uy-joy daxlsizligi huquqlari Yevropa davlatlarining konstitutsiyasida, xususan 1994-yil 17-fevralda qabul qilingan Belgiya Qirolligi Konstitutsiyasida ham yozilgan. Bulardan tashqari, Yevropa Ittifoqining umumiyligi ma’lumotlarini himoya qilish nizomi, AQSHning CCPA kabi qonunlarida aks ettirilgan. Yevropa Ittifoqining umumiyligi ma’lumotlarini himoya qilish nizomi (GDPR) qabul qilishi bilan kompaniyalar shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlashga ehtiyyotkorlik bilan yondosha boshladi, jumladan, Google, Amazon, Facebook kabi kompaniyalarga katta jarimalar qo’llangan. Bu jarima qo’llash ham shu nizomning 83-moddasida keng yoritilib berilgan. Unga ko’ra, qoidalarni buzgan kompaniyalar yillik aylanmasining 4% gacha jarima qo’llanilishi belgilangan.

1981-yilda Shaxsiy ma’lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlashda shaxslarni himoya qilish to‘g‘risidagi Konvensiya qabul qilingan. Ushbu konvensiyaning asosiy mazmuni bu shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlashda fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha davlat organlari nazorati kerakligi belgilangan.⁷ Bu konvensiya GDPR ga asosan yaratilgan hujjatlardan biri hisoblanadi va ko‘plab Yevropa davlatlarida ratifikatsiya qilingan.

O‘zbekistonda shaxsiy hayot daxlsizlik huquq himoyasini oshirish uchun Singapur davlatida qo’llanilib kelinayotgan “Data Trusts” modelini joriy qilish kerak. Bu model shaxsiy va korporativ ma’lumotlarni xavfsiz boshqarish uchun maxsus tashkil etilgan mustaqil tuzilma. Bu modelda fuqarolar va kompaniyalar o‘z ma’lumotlarini maxsus ishonchli jamg‘armalarga topshirishadi, bu esa ushbu ma’lumotlarning noto‘g‘ri ishlatilishining oldini oladi. Bu tizim faqatgina Singapurda emas, balki boshqa rivojlangan davlatlarda ham ommalashgan. Misol tariqasida Buyuk Britaniya va Kanada ham ushbu tizimni turli sohalarda muvaffaqiyatli sinovdan o’tkazdi. Bu model orqali Buyuk Britaniyada “Open Data Institute” tomonidan Data Trusts bo‘yicha pilot loyihalar amalga oshirildi. Kanadada shaxsiy ma’lumotlar nazorati bo‘yicha “Data Governance Standardization Collaborative” tashkiloti ushbu modelni rivojlantirdi. Buning oqibatida, fuqarolar ma’lumotlari davlat yoki kompaniyalar tomonidan nazoratsiz ishlatilishining

⁶ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 10.12.1948. <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>

⁷ Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlarga qarshi. 10.12.1984. <https://lex.uz/docs/-2655293>

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

oldi olindi. Shaxsiy ma'lumotlarning noto'g'ri ishlatalishi sababli yuzaga keladigan huquqbuzarliklar soni sezilarli darajada kamaydi. Bu tizimni O'zbekistonga olib kelish uchun shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish kerak. Buyuk Britaniya, Singapur va Kanada tajribalarini o'rganib, O'zbekistonga moslashtirish zarur. Eng asosiysi, fuqarolar o'z shaxsiy ma'lumotlarini maxsus ishonch jamg'armalariga topshirishga tayyor bo'lishi lozim. Agar O'zbekiston Singapur va Buyuk Britaniya tajribasidan foydalansa, Data Trusts modeli ma'lumotlar xavfsizligini oshirish, shaxsiy hayot daxlsizligini himoya qilish va davlatga bo'lgan ishonchni kuchaytirishda katta rol o'yashi mumkin.

Shaxsiy huquqlarga doir muammolarning kelib chiqishiga yana bir sabab bu qonuniy tartibga solish mexanizmning va fuqarolarning shaxsga doir ma'lumotlar himoyasi bilan bog'liq huquqlaridan to'g'ri foydalana olmasliklarida. Demak, bu muammolarga samarali yechim topish uchun shaxslarning huquqiy ongini oshirish lozim va shaxsga doir ma'lumotlarning huquqiy maqomini yanada mustahkamlash, samarali himoya mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish kerak.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish — bu har bir fuqaroning huquqi bo'lib, davlatlar tomonidan qat'iy qonunlar va xalqaro me'yorlar asosida amalga oshirilishi lozim. Shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash, har bir insonning maxfiylik huquqini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Xalqaro va milliy qonunchilik, shuningdek, texnologiyalarni inobatga olgan holda, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga qaratilgan huquqiy asoslarni rivojlantirish va takomillashtirish zarur. Huquqiy nazorat va amaliy choralar orqali shaxsiy ma'lumotlarni saqlash, ulardan foydalanish va himoya qilish davlatlar o'rtasida jahon miqyosida ahamiyatga ega. Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishda normativ-huquqiy hujjatlar zarur poydevor bo'lsada, muammolarni hal qilish uchun fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish va texnologik taraqqiyotga moslashish uchun doimiy harakatlar talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023 <https://lex.uz/docs/-6445145>.
2. O'zbekiston Respublikasi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuni. 02.07.2019 yildagi O'RQ-547-son. <https://lex.uz/docs/-4396419>.
3. ECtHR. Leander v. Sweden. Application no. 9258/81. Judgment of 26 March 1987. Series A. No. 116. Para. 48.
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/-111453?ONDATE=23.03.2023>
5. Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar hukumatlari o'rtasida bitim. Xalqaro axborot xavfsizligini ta'minlash sohasida hamkorlik to'g'risida. 16.06.2009. <https://www.lex.uz/uz/docs/-2068476>

**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS**



6. Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlarga qarshi.
10.12.1984.<https://lex.uz/docs/-2655293>

7. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.
10.12.1948.<https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>

8. Daniel J.Solove's book, The digital person: Technology and Privacy in the information age (2004).
https://scholarship.law.gwu.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=2501&context=faculty_publications

